

**VOYAGA YETMAGAN JINOYATCHILAR SHAXSINI O'RGANISHNING
KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA UNING AHAMIYATI**

Toshmurodov Ahror

Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsining kriminologik tavsifi, ularning shaxsiy xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlari, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlar va huquqbuzarliklarni oldini olish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar, voyaga yetmaganlar o'rtasida solir etilgan jinoyatlar haqida statisitik ma'lumotlar, voyaga yetmagan huquqbuzarlarning shaxsining kriminolik tavsifi haqida xorijiy huquqshunoslarning qarashlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *voyaga yetmaganlar, kriminologik tavsif, statistika, huquqbuzarlik.*

Abstract: *The article analyzes the criminological characteristics of the personality of juvenile offenders, their specific characteristics in personal character, the work carried out in our country on the prevention of crimes and offenses among minors, statistical data on crimes committed between minors, reviews of foreign lawyers on the criminological characteristics of the personality of juvenile offenders.*

Keywords: *investigator, preliminary investigation, prosecutor's supervision, judicial supervision, investigator's independence, investigative action*

KIRISH

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning o'sib borishi jamiyatimizning turli qatlamlarini tashvishga solmoqda. Shu sababli mamlakatimizda voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi holatlarini barvaqt oldini olish bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yildi. Xususan, mustaqilligimiz qo'lga kiritilganidan 3 oy o'tmasdan, ya'ni 1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2016 yilga kelib "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bundan tashqari, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi, qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi umumsiyosiy munozaralarida ham yoshlar mavzusiga alohida to'xtalishi masalaning dolzarbligidan dalolat beradi. Jumaladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mazkur muaammoga alohida e'tibor berib prezidentiligining dastlabki yillarda quyidagicha fikrni ta'kidlagan: "Barcha hududlarda, har mahalla va oilada ma'naviy muhitni yaxshilash

maqsadida uyma-uy yurish va bunga keng jamoatchilik jalb etish yuzasidan yangi ish uslublari joriy etilganiga qaramay, hali kutilgan natijalarga to'liq erishilgani yo'q. Masalan, Farg'onan viloyatida voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik o'sgan. Umuman, o'tgan 7 oy mobaynida viloyatda voyaga yetmaganlar tomonidan 129 jinoyat sodir etilgan. Viloyatning 10 shahri va tumanida voyaga yetmagan bolalarni uyda yashirincha diniy o'qitish holatlari aniqlangan. Buning uchun Xotin-qizlar qo'mitasi, Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Nuroniy jamg'armasi va mahallalar rahbarlari bevosita javobgardir"^[1]. Prezidentimizning mazkur nutqi tasdig'i o'larok, yoshlar, jumladan voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Ushbu say-harakatlar oqibatida voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotagan huquqbazarliklar va jinoyatlarning soni sezirarli darajada kamayganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2018 yilda 938 tani, 2019 yilda 739 tani, 2020 yilning birinchi yarmida 338 tani tashkil etgan^[2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Voyaga yetmagan jinoyatchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishda ularning jinsi, yoshi, ijtimoiy bandligini muhim ahamiyatga ega. Sababi ushbu xususiyatlarni bilish orqali voyaga yetmaganlar orasida aynan qaysi toifadagilar huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'ladi va voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbazarliklarni sodir etilishiga nimalar sababchi bo'ladi kabi savollarga javob topgan holda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish mumkin. Kriminalogiya fanida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson qancha vaqtli jinoyat sodir qilsa, uning kelajakda o'z jinoiy faoliyatini davom ettirishi va yanada xavfli qilmishlar sodir qilish extimoli shunchalik yuqori bo'ladi^[3].

Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishi sabablari ko'p. Ammo mazkur omillar ichida voyaga yetmaganlarning xarakteri asosiy o'rin egallaydi. Shu sababli, voyaga yetmaganlarning harakaterini o'rganishi orqali ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbazarliklarni oldini olishning samarali mehanizmini ishlab chiqish mumkin. Kriminalogiya fanida voyaga yetmaganlar shaxsining kriminologik tavsifini o'rganishning turli nuqtai nazarlari mavjud. Xususan, Rossiyalik huquqshunos olim A.I.Alekseyevning fikricha, voyaga yetmagan huquqbazarlarning shaxsiyati quyidagi belgilari bilan tavsiflanishi kerak: ijtimoiy demografik, jinoiy-huquqiy, axloqiy va psixologik xususiyatlar, ijtimoiy ahamiyatga ega fiziologik xususiyatlar^[4].

Voyaga yetmagan jinoyatchining asosiy ijtimoiy-demografik xususiyati bu uning yoshi, jinsi va oilaviy ahvolidir. Jinoyat Kodeksimizga ko'ra, shaxs 16 yoshdan umumiy jinoiy javobgarlikka, 14 yoshdan boshlab esa qasddan odam o'ldirish, o'g'rash,

zo'rash, jinsiy ko'rinishdagi zo'rlik ishlatalish, o'g'rilik, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, jinoyatlar uchun, 13 yoshdan esa aybini og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning katta qismi 16-17 yoshda bo'lgan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladi. Voyaga yetmaganlar tomonidan asosan mazkur yosh oralig'ida jinoyatlarning sodir etilishiga turli sabablarni keltirish mumkin. Xususan, mazkur yosh oralig'ida o'smirlar ta'sirchan va janjalga moyil bo'ladi. Shuningdek, hayotiy tajriba etishmasligi, ishonuvchanlik, tez his-hayajonga berilish, asabiylig, mustaqillikka bo'lgan tabiiy intilish, o'ziga va atrofdagilarga baho berish mezonlarining shakllanib ulgurmaganligi natijasida o'smirlar aksariyat hollarda bo'lib o'tayotgan voqeliklarning asl mohiyatini anglab eta olmaydi. Ushbu omillar inobatga olish ko'p jihatdan tergov uslubiyoti xususiyatlarini belgilab beradi. Sababi, voyaga etmaganlar bilan munosabatlarda tergovchi protsessual me'yorlarga riosa qilishidan tashqari keng miqyosdagi ma'naviy va ruhiy bilimlarga tayanishi lozim.

Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiyatining keyingi muhim xususiyati uning jinsidir. Ushbu toifadagi jinoyatchilarining 90-95 % erkak jinsidagi shaxslar bo'lib, shu yoshdagi aholi qatlamining ko'pchiligin, ya'ni 48-52 % ni tashkil qiladi. Voyaga yetmagan va jinoyat sodir etgan qizlar esa aholining shu yoshdagi qatlamiga kiruvchilarining 4-9 % ni tashkil qiladi. Har ikki jinsga taalluqli voyaga yetmagan jinoyatchilarining bu ko'rsatkichlari mamlakatimizda keyingi o'n yil mobaynida bir hilligicha saqlanib qolmoqda[5].

Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, keyingi paytlarda voyaga yetmagan qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar miqdori voyaga yetmaganlar jinoyatlari tarkibida 2-2,5 marta ko'paygan. Jumladan, har uchta fohishadan ikkitasi voyaga yetmaganlardir. Shuningdek, voyaga yetmagan qizlar ko'pchilik jinoyatlarning sodir etilishida yo'naltiruvchi, o'g'rilik, talonchilik, ta'magirlik, firibgarlik, xatto odam o'ldirish jinoyatlarida esa ishtirokchi sifatida qatnashganlar.

Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiyatining navbatidagi muhim xususiyati ularning oilaviy ahvoldir. Sababi, o'smirlarning shaxsiyatini shakllantirishda avvalombor ularning oilaviy muhiti asosiy rol o'ynaydi. Oilasi voyaga yetmaganlarning shaxsiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Voyaga etmagan jinoyatchilarining 55 foizi otasi yoki onasi yo'q yoki oiladan tashqarida (bolalar uyi, internat uyi va boshqalar) tarbiyalangan. Ayrim mualliflarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadi, voyaga etmagan jinoyatchilarining 65 foizi oilaviy muhit sog'lom emas va aksariyat hollarda bunday oilalarning oilaviy daromadlari ancha past bo'ladi[6].

Endilikda o'smirlar shaxsining jinoiy-huquqiy hususiyatlariga e'tibor qaradigan bo'lsak, statistik ma'lumotlarga ko'ra, voyaga yetmaganlarning 20 foizi huquqbazarlik sodir etgan vaqtida oldin sodir etgan jinoyatlari uchun sudlangan yoki sudlanganlik holati olib tashlanmagan holatda bo'lgadi. Voyaga yetmagan jinoyatchilarining 17 foizi

huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ro'yhatda turgan, 10 foizi esa oldin jinoiy javobgarlikka tortilmagan, ammo, boshqa turdag'i tarbiyaviy harakterdagi jazolarga tortilgan bo'ladi.

O'smirlar shaxsining jinoiy-huquqiy hususiyatlarini tahlil qilishni davom ettiradigan bo'lsak, ularning o'ziga xos yana bir jihat shuki, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 78 foizi xususiy mulkka qarshi qaratilgan bo'ladi. Ammo o'smirlar tomonidan ushbu jinoyatlarning amalga oshirishga yagona sabab sifatida moddiy foyda deb tushunish kerak emas. Sababi, Rossiyalik huquqshunos olim Yu.M.Antonyanning ta'kidlashicha, ko'pincha o'smirlar mazkur toifagi jinoyatlarni o'zlarining kuchini ko'rsatib qo'yish, tengdoshlari orasida hurmat va ishonch qozonish uchun amalga oshirishadi[7].

Shuningdek, o'smirlar shaxsining jinoiy-huquqiy hususiyatlaridan yana biri, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar aksariyat hollarda haddan tashqari shafqatsizlik bilan ajralib turadi. Buning o'ziga xos sabablari mavjud. Xususan, voyaga yetmaganlar jinoiy qilmishlarini shafqatsizlik bilan amalga oshirish orqali o'zlarining tengdoshlari orasida o'rnini kuchaytirish, aqliy kamchiliklarini shafqatsiz fel-atvori orqali qoplashga harakat qilishadi.

Voyaga yetmaganlar kriminalistik shaxsining navbatdagi belgisi bu – ularning axloqiy va psixologik xususiyatlaridir. Tadqiqotlarga ko'ra, 14 yoshdan 18 yoshdagacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning fe'l atvorida uyat-andisha, o'zgalar tashvishini anglamaslik, o'zini tuta bilmaslik, qo'pollik, yolg'onchilik va o'z aybini tan olmaslik kabi xislatlar kuzatilgan. Shuningdek, bu yosh oralig'ida voyaga yetmaganlar extirosga beriluvchan, odamovilik, o'zgalar dardiga xamadard bo'la olmaslik, tajovuzkorlik, o'jarlik kabi xislatlar ko'proq kuzatiladi. Shuningdek, aksariyat hollarda ularda huquqiy ong past bo'ladi, ular o'qish, san'at va siyosatga qiziqmasdan, aksincha ko'ngilochar o'yinlarga, ichkilikka qiziqishadi va bu kabi extiyojlarini qondirish uchun g'ayriqonuniy va jinoiy yo'llar bilan mablag' topishga harakat qilishadi.

Voyaga yetmaganlarning kriminalistik harakterining so'ngi belgisi bu- ularning fiziologik xususiyatlaridir. Xususan, huquqbazarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning aksariyati spirtlik ichimliklarga va giyoxvandlik vositalariga ruju qo'ygan bo'lishadi. Bu esa, o'z navbatida ularning shaxsiyatini tanazzulga uchrashiga va turli o'ylanmagan xavfli qilmishlarni sodir etishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rasatadiki, huquqbazarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarning 15 foiz o'z qilmishlarini spirtli ichimliklar yoki giyoxvandlik vositasi ta'sirida sodir etishgan[8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, voyaga yetmaganlarning kriminalistik harakterida quyidagi xususiyatlarni ko'rish mumkin ekan:

–Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbazardiklar aksariyat hollarda ular 14- 15 yoshlarida sodir etiladi;

–Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbazarliklar ko'p hollarda shavfqatsizlik

sodir etiladi;

–Voyaga yetmagan huqbuzarlarning xarakterida o‘qish, shaxsiy rivojlanish va mehnat qiziqish bo‘lmay, aksincha, ko‘ngilhushlikka, spirtli ichimliklar va giyoxvandlik vositlariga qiziqish kuchli bo‘ladi;

–Voyaga yetmaganlar huquqbuzarlarning aksariyat hollarda sog‘lom oilaviy muhit bo‘lmaydi va moddiy jihatdan qiyin ahvolda bo‘ladi.

REFERENCES:

1. Грудинин Н.С. Личность несовершеннолетнего российского преступника и механизмы ее формирования // Научный Вестник. 2016. № 2. С. 20–27.
2. Алексеев А.И. Криминология: Курс лекций; 4-е изд., испр. и доп. М.: Щит-М, 2004
3. Криминалогия: Дарслик / З.С.Зарипов, Ю.С.Пулатов, Г.А.Аванесов ва бошк.; проф З.С.Зарипов таҳрири остида. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2006. – 474 б
4. Голубничая Л.С. Криминологическая характеристика личности несовершеннолетнего преступника // Амурский научный вестник. 2015. № 1. С. 158–172.
5. Антонян Ю.М. Личность несовершеннолетнего преступника // Вестник
6. <https://sputniknews-uz.com/20170810/Prezident-voyaga-yetmaganlar-orasida-jinoyatchilik-ortganligi-uchun-rahbarlarga-tanbeh-berdi-6009583.html>
7. <https://kun.uz/news/2020/11/02/ular-jinoyat-sodir-etmasligi-mumkin-edi-osmirlar-jinoyati-sabab-va-yechimlar>